

**ALEKSANDR MAKEDONSKIY SALTANATI VA HARBIY
YURISHLARINING ILMIY TAHLILI**

Shermetova Dilnura Baxram qizi

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Aleksandr Makedonskiyning saltanati, harbiy yurishlari va tuzgan imperiyaning inqirozi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Baqtra, Afinador, diadox, Arridey, Filipp II, Yevmen, Olimpiada, Perdikka, Gabiyn yonidagi hal qiluvchi jang, Roksana va Aleksandr IV, Kasandr, Ptolomey, Antigonlar, Salavka.

KIRISH

Aleksandr Makedonskiy Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. O'zining ma'naviy rahnamosi Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan. 336-yil Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan.

334-yil Aleksandr Eronga yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo'lib, uning o'limi tufayli to'xtab qolgandi. Aleksandr qo'shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolemey Lag va boshqa, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 kema bo'lgan.

Aleksandr Granik (334-yil), Iss (333-yil) va Gavgamela (331-yil) janglarida Doro III qo'shinlarini yenggan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari — Bobil, Suza, Persepol, Ekbatana hamda Misrni egallagan. Aleksandr 329-yil Baqtriyani egallagach, satrap Bess, Oke (Ukuz, Amudaryo) dan kechib o'tib, Navtaka (Qashqadaryo vohasi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib, qatl etilgan. So'ng, Aleksandr Samarqand (Marokanda)ni egallab, Sirdaryo tomon yo'l oladida, u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) deb ataydi. Umuman Aleksandrning O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilikka uchragan. Ustrushonadagi yettita shahar-qal'a Aleksandrga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bularning ichida eng kattasi — Kiropol bo'lib, Kir II uni boshqa shahar-qal'alarga nisbatan baland devor bilan o'ratgandi. Uning ichida mahalliy aholining ko'pchilik qismi, eng jangovar jangchilar to'planardi. Aleksandr shahar atrofiga xandaq qazdirgan, manjanaqlar (devorteshar mashinalar) bilan devorning bir necha yeridan teshik ochib, u yerdan shaharga bostirib kirmoqchi bo'lgan. Bu urinishi natijasiz chiqqach, u harbiy hiyla ishlatib, shahar ichidan o'tgan quruq daryo o'zani

orqali o'zining xos jangchilari bilan shaharga kirgan. Kiropol mudofaachilari bilan Aleksandr jangchilari o'rtasida shiddatli jang bo'lgan. Unda Aleksandr boshi va bo'yniga tosh tegib yarador bo'lgan, bir qancha lashkarboshilari (Krater va boshqalar) kamon o'qidan shikastlangan. Makedon qo'shini katta qiyinchilik bilan shaharni egallagan. Shahar mudofaachilari (jami 15 ming) dan 8000 ga yaqini halok bo'lgan, qolgani ichki qo'rg'onga yashiringan, so'ng tashnalikdan qiynalib taslim bo'lgan. Makedon qo'shini qolgan shaharlarni ham shu tariqa qiyinchilik bilan egallagan.

Aleksandr mahalliy xalqning jasoratidan shu qadar xavotirga tushganki, Ptolemeyning aytishicha, u o'z jangchilariga asir olingan kishilarni bo'lib berib, to bu mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha ularni zanjirband holda saqlashni topshirgan. Aleksandr Sug'diyonada Spitamen qo'zg'olon ko'tarib, Marokandani qamal qilgani (qarang Spitamen, Spitamen qo'zg'oloni) va Tanais ortidan saklar podshosining ukasi Kartazis boshchiligidagi katta qo'shin unga yordamga yetib kelgani haqida xabar-dor bo'lgach, qo'zg'olonchilarga qarshi 2000 kishilik qo'shin jo'natib, o'zi saklar tomon qo'shin tortgan (qarang Tanais daryosi bo'yidagi jang). Mazkur qo'shin tor-mor keltirilgach, Aleksandr shaxsan o'zi katta kuch bilan Spitamenni dasht chegarasigacha ta'qib qilib borib, ortga qaytishda 120 mingdan ortiq tinch aholini qirib tashlaydi, ko'plab qishloq va qal'alarni vayron qiladi, ekinzor, bog'-rog'larni payhon etadi. Aleksandr mil. Av. 329-328-yillar qishini Zariaspa (Balx, Baqtra)da o'tkazadi. Bahorda uning huzuriga xorasmiylar podshosi Farasman 1500 jangchisi bilan kelib o'zaro ittifoq tuzishni taklif etadi. Aleksandr 328-327-yil boshida Sug'diyonadagi tog'lar ustida joylashgan qal'alardagi qo'zg'olonchilarni bo'ysundirishga juda ko'p kuch sarflaydi, ularni mag'lub qilgach, Oksiartning qizi Roxshanak (Roksana) ga uylanadi (qarang So'g'd qoyasi, Xoriyen qal'asi va boshqalar). Mil. av. 327-yil yozida Aleksandr so'g'dlik Oropiyni So'g'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi Hindistonga yurish qiladida, Gidasp daryosi (Hind d. Irmog'i) sohilida katta qiyinchilik bilan podsho Por qo'shini ustidan zafar qozonadi. Shu tariqa Aleksandr Panjobni egallab, Gang daryosi vodiysiga yurishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq safar va kasallik azobidan holdan toygan qo'shinning ochiqdan-ochiq qarshiligiga duch keladi. Shu bois Aleksandr Gifasis daryosi (Hind d. Sharqiy irmog'i) bo'yidan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib Bobil shahrini tanlagan va shu yerda yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga yo'liqib vafot etgan. Aleksandr yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanat hududi Hind da-ryosidan Dunayga qadar cho'zilgan bo'lib, u qad. Dunyoning eng yirik davlati edi. Le-kin mustahkam ichki aloqalari bo'lmagan bu saltanat Aleksandr vafot etgach, tezda parchalanib ketgan va uning hududida bir qancha ellinistik davlatlar vujudga kelgan. Aleksandr harbiy san'at tarixida yirik sarkarda sifatida mashhurdir. Qadim zamonlardan (mil. Av. 200-yil) Aleksandr haqida ko'plab rivoyat, afsona, doston va miniatyuralar yaratilgan. Ular o'rta asr adabiyotiga ham kirib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aleksandr Makedonskiy mil.avv. 323-yil 13-iyunda vafot etadi. Iskandar o'zining vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmas, bu uning lashkarboshilari o'rtasida Iskandar merosi uchun uzoq kurashga olib keldi. Bu kurash bir necha o'n yillarga cho'zilib, juda ko'p qon to'kislarga olib keldi.

Iskandarning o'limi vaqtida makedon taxtiga qonuniy da'vogarlari yo'q edi:

Iskandarning xotini so'g'd malikasi Roksana hali homilador edi. Pergamda Iskandarga asir tushgan fors satrapi Artabazning qizi Barsinadan 4 yoshli noqonuniy o'g'li Gerakl qolgan edi. Taxtga Filipp II ning noqonuniy o'g'li aqli zaif

Arridey ham da'vo qilishi mumkin edi. Makedoniyada Iskandarning yaqinlari Roksana agar o'g'il tuqsa uni podsho deb e'lon qilish, uning go'dakligi davrida hokimiyatni tajribali sarkarda Perdikka boshchigidagi davlat kengashiga topshirish kerak deb hisobladilar. Harbiy boshliqlar va saroy ayonlarining boshqa bir guruh Arridey nomzodini yo'qlab chiqdilar. Obro'li lashkarboshi Nearx makedon taxtiga birdan-bir da'vogari Gerakl bo'lishi mumkin deb hisobladi. Iskandarning safdoshi, lashkarboshi Ptolemey boshchiligidagi yana bir guruh podshoni saylash kerak emas, chunki Iskandarni o'g'illarining onalari Sharq ayollari, uning asiralaridir, oqibatda bunday da'vogarlarni taxtga chiqarish hamma vaqt noqonuniy bo'ladi deb hisobladilar. Taxt vorisi to'g'risidagi munozaralar natijasida Perdikka regentligi bilan Filipp II ning noqonuniy o'g'li Arrideyni podsho deb e'lon qilish bilan tugadi. Xuddi shu vaqtda Iskandarning bevasi Roksana o'g'il tug'di va unga Iskandar deb nom qo'yildi. Makedon taxtiga birdaniga Arridey Filipp III nomi bilan Roksananing o'g'li Aleksandr IV nomi bilan podsho deb e'lon qilindi. Osiyodagi qo'shinlar qo'mondonligini o'ziga olgan Perdikka yana regent etib tayinlandi, shunday qilib u Iskandar davlatining amaldagi hokimiga aylandi. Iskandarning vafotidan keyin amalda yagona davlatning oliy hokimi bo'lgan Perdikka Bobilda makedon podshosining eng yaqinlari o'rtasida satrapliklarni taqsimlagan edi. Yunoniston va Makedoniya Antipatrga, Frakiya Lisimaxga, Misr- Pitolomeyga, Kappadokiya va Paflagoniya-Yevmenga, Gellesfont Frigiyasi- Leonardga, Buyuk Frigiya- Antigonga, Suriya-Laomedontga, Midiya-Pifonga berildi. Barcha yangi saylangan hokimlar o'z qo'shinlari bilan o'z mulklariga jo'nab ketdilar. Iskandarning aynan ana shu sobiq safdoshlari (diadoxlar) Iskandar merosi uchun qonli kurashni boshladilar. ¶

Iskandar o'limidan keyingi ikki yil davomida Yunoniston makedon zulmidan ozod bo'lishga urindi. Antipatr yunon qo'shinlarini tor-mor qilib bu yerga makedon garnizonlarini joylashtirdi. Er. avv. 321-yilda Misrda o'rnashib olgan va Perdikkani regentligini tan olmagan Ptolemeyga qarshi yurishda Perdikka halok bo'ldi. Endilikda davlat regenti qilib Yunoniston va Makedoniyaning hokimi keksa Antipatr saylandi. Uning buyrug'i bilan podsho oilasi Makedoniyaga ko'chirildi. Antipatr topshirig'i bilan er. avv. 321-yilda satrapliklar qisman qayta taqsimlandi. Natijada kelajakdagi

eng yirik Osiyo davlatining asoschisi Salauk Bobilni o'z qo'liga oldi. Shundan ikki yil keyin er. avv. 319-yilda Antipatr vafot qildi. U regentlikka voris qilib, keksa va tajribali harbiy boshliq Poliperxontni tayinlashga ulug'rgan edi.

Ammo bu Iskandarning sobiq yaqinlari yosh g'ayratli lashkarboshilarni qondirmadi. Jumladan Antipatrning bu qaroridan o'g'li Kassandr norozi bo'lib, Poliperxontdan bu lavozimni tortib olish uchun Sharqdagi satraplar Lisimax, Antigon va Ptolemey bilan ittifoq tuzdi. Er. avv. 316-yilda Poliperxont regentlikdan chetlashtirildi, Kassandr butun Yunonistonni egallab oldi. Lekin Antigon va Iskandarning sobiq kotibi Yevmen Kassandrni kuchayib ketishidan norozi bo'ldilar.

MUHOKAMA

Iskandar davlatini yaxlitligini saqlab qolishga uringan separat kayfiyatlarga qarshi natijasiz kurashgan birdan-bir kishi Yevmen edi. U makedon podsholigining "Qonuniy" podsholari nomidan harakat qilgan, qator sabablarga ko'ra hech qanday hudud va qo'shinga ega bo'lmagan birdan-bir diadox edi. Lekin uning qo'lida Iskandar sobiq davlatining turli shaharlarida bosib olingan katta miqdordagi moliyaviy mablag'lar bor edi. Yevmen ana shu mablag'lar hisobiga katta yollanma qo'shin to'plab Bobil va Eronni bosib olishga urindi. Bu xavfga qarshi Antigon Bobil va Midiya satraplari Pifon va Salavk bilan ittifoq tuzdi va Yevmenga qarshi yurish qildi. Er. avv. 316-yilda Gabiyn yonida (Midiya va Eron chegarasi) Yevmen bilan Antigon o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Yevmenning yollanma qo'shinlarning xoinligi jangni Antigon foydasiga hal qildi. Yevmen qo'lga olinib qatl qilindi.

Er. avv. 317-yilda Iskandarning onasi Olimpiada hokimiyatni Roksananing o'g'liga qoldirish uchun Filipp Arridey va uning xotini Evridikani o'ldirishga buyruq berdi. Shundan so'ng uning o'zi Kassandr tomonidan qatl qilinadi, Rokšana va Iskandar IV Kassandrni asirligida bir necha yil ushlab turilib o'ldiriladi (er. avv. 311-yil yoki 310-yil). Yuzaga kelgan bu vaziyat diadoxlarni o'z hududlarida o'z podsholik hokimiyatlarini o'rnatishga intilishlari uchun hech qanday rasmiy to'siq qolmaganini bildirar edi.

NATIJA

Diadoxlar o'rtasidagi urushlar uzoq davom etib, Yunoniston, Misr, Kichik Osiyo va Mesopotamiya asosiy jang maydonlariga aylandi. Er. avv. 306-yilda Antigonning o'g'li Demetriy Poliorket ("shaharlarni qamal qiluvchi") makedon garnizonlarini Yunonistondan haydab yubordi, Afina va Megarada erkinlik va demokratiya e'lon qilindi. Er. avv. 306-yilda Antigon, keyinroq Ptolemey, Lisimax, Salauk va Kassandr o'zlarini podsho deb e'lon qildilar.

XULOSA

Aleksandr Makedonskiyyaratgan imperiya taxti uchun Aleksandr Makedonskiy diadox (lashkarboshi) lari o'rtasida o'rtasida hukmronlikka intilish kayfiyati kuchaydi. Aleksandr Makedonskiyvafotidan keyin diadoxlar –lashkarboshilar o'rtasidagi

kurashdan so'ng Aleksandr Makedonskiydavlati 3 qismga bo'linib ketadi. Misrda Ptolomeylar, Gresiya va Makedoniyada Antigonidlar, O'rta er dengizining sharqiy qismidan to shim.g'arbiy Hindistongacha bo'lgan xududlarda Salavkiy qo'lida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
2. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
3. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.